
TUMAN HOKIMI "DUTIR" MFYDAGI JARAYONLAR BILAN TANISHDI

Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqov mahallalarda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, aholi turmush sharoitlari bilan tanishish maqsadida "Dutir" mahallasida bo'ldi.

Ushbu mahallada bo'lgan tuman hokimi mahalladagi "yettilik" - mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori, ijtimoiy xizmat xodimi, soliq inspeksiyai xodimining faoliyati bilan tanishdi.

Tuman hokimi mazkur mahallada yashovchi fuqarolar oilasi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan daromadni qanday topayotganini xonadonbay o'rgandi.

Tomorqachilik yunalishi bo'yicha xonadon egalari bilan suhbat olib borgan tuman hokimi ularning daromadni oshirish uchun eksportbop mahsulotlar yetishtirish yuzasidan xonadon egalari kerakli maslahatlarni berdi.

Tashrif davomida shuningdektuman hokimi fuqarolar bilan suhbatlashib, ularning muammolari bilan tanishdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2024-04-19 15:22:05